

## URUSH VA INSON: “AFG‘ON TO‘LA FIG‘ONIM” XOTIRA-ESSESINING G‘OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI

Sharipov Dilshodbek Shodmonjon o‘gli

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

dilshodbeksharipov93@gmail.com

ORCID ID 0009-0000-1460-1606

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18976222>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Afg‘on urushi mavzusining o‘zbek va jahon adabiyotidagi talqini hamda Abdug‘afur Iskandarning “Afg‘on to‘la fig‘onim” xotira-essesi badiiy tahlil qilinadi. Asarda urushning inson ruhiyatiga ta‘siri, ona obrazi, xat motivi, qo‘rquv fenomeni va ichki iztirob masalalari yoritiladi. Muallif urushni shon-sharaf emas, balki insoniy fojia sifatida talqin etadi. Tadqiqotda asarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari ochib berilib, uning tinchlikni ulug‘lash va insoniylikni asrash g‘oyasini targ‘ib etishi asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar.** Afg‘on urushi, urush mavzusi, badiiy talqin, xotira-esse, ona obrazi, qo‘rquv fenomeni, inson ruhiyati, tinchlik g‘oyasi

**Аннотация.** В статье анализируется тема афганской войны в узбекской и мировой литературе, а также проводится художественный анализ мемуарно-эссеистического произведения Абдугафура Искандара «Афган тўла фиғоним». Особое внимание уделяется изображению духовных переживаний человека на войне, образу матери, мотиву письма и феномену страха как внутреннего конфликта личности. Автор рассматривает войну не как героическое событие, а как человеческую трагедию. В работе раскрываются идейно-художественные особенности произведения и его значение в утверждении ценностей мира и гуманизма.

**Ключевые слова.** Афганская война, тема войны, художественная интерпретация, мемуарное эссе, образ матери, феномен страха, психология личности, идея мира.

**Annotation.** This article examines the theme of the Afghan war in Uzbek and world literature and provides a literary analysis of Abdugafur Iskandar’s memoir-essay “Afghan To‘la Fig‘onim.” Particular attention is given to the psychological impact of war, the image of the mother, the motif of letters, and the phenomenon of fear as an internal conflict. The author interprets war not as a heroic act but as a human tragedy. The study reveals the ideological and artistic features of the work and substantiates its role in promoting the values of peace and humanity.

**Keywords.** Afghan war, war theme, literary interpretation, memoir-essay, mother image, phenomenon of fear, human psychology, idea of peace

### Kirish

Adabiyot, yoki badiiy adabiyotdagi doimiy yoki og‘riqli, desak to‘g‘ri bo‘lar, mavzulardan biri bu – urush mavzusidir. Hozir bir qadar tinch zamonlarda yashayabmiz, albatta. Lekin, afsusuki, hozirgi kunda ham urush holatida yashayotgan mamlakatlar kam emas. Urush haqida o‘qigan, uning yovuzliklari, qabohatini anglab yetgan o‘quvchigina tinchlikni qadriga yetadi. Urush mavzusi yoritilgan asarlar borki, kitobxonning nazaridan chetda qolmaydi. Ushbu mavzuda jahon adabiyotida ham, o‘zimizda ham yozilgan asarlar talaygina. Kichik xalq qo‘zg‘olonidan tordim I – II jahon urushigacha bo‘lgan voqealar yoritilgan asarlar talaygina. Biz shulardan bir tarmog‘i bo‘lmish Afg‘on urushi haqida yozilgan mo‘jaz bir asar haqida so‘z yuritsak.

### Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Bu mavzuda jahon adabiyotida Belarus yozuvchisi, Nobel mukofoti sohibi Svetlana Alekseyevichning “Temir tobutdagi yigitcha” asari, Artyom Borovikning “Yashirin urush” romani, “Afg‘oniston. Yana bir bor urush haqida” kitobi, Afg‘on-amerika yozuvchisi Xolid Husayniyning “Shamol ortidan yugurib”, “Ming quyosh shu‘lasi”, “Tog‘lar ham sado berdi” romanlarini keltirish mumkin.

O‘zbek adabiyotida O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar”, Qo‘chqor Norqobilning “Quyoshni kim uyg‘otadi” Abdurashid Normurodovning “Qonli yo‘rgaklar”, Isoqjon Nishonovning “Afg‘on shamoli”, Nabi Jaloliddinning „O‘limning rangi”, Nabijon Hoshimovning “Afg‘on fig‘onlari yoxud tilmoch Samarqandiyning ko‘rgan-kechirganlari”, Abdug‘afur

## **“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

Iskandarning “Afg‘on to‘la fig‘onim” kabi asarlari ushbu mavzuda hikoyadan tortib roman-turkumlarigacha yozildi, bu asarlar tadqiqida bir necha ilmiy tadqiqotlar yozildi

Shu o‘rinda Abdug‘afur Iskandarning “Afg‘on to‘la fig‘onim” xotira-essesi haqida qisqacha to‘xtalib o‘tsak. Bu asarda muallif o‘z ko‘rgan-bilganlari orqali Afg‘on urushini hikoya qiladi. Asosiy g‘oya – urush o‘sha paytdagi hukumatning xatosi ekanini aytish, eng katta aziyatni esa ona va oilalar ko‘rganini ko‘rsatishdir. Asar yarimbiografik tarzda yozilgan. Asar katta-kichik hajmda bo‘lsa ham yigirma sakkiz bobdan iborat. Muallif o‘z onasidan tortib Afg‘onda halok bo‘lgan do‘stlari haqida xotiralarni keltiradi va hayotning qadrini asrashga da‘vat etadi. O‘zbek adabiyotida nisbatan xilma-xil bo‘lgan bu ijod namunasining uslubi samimiy va poetik. Unda urushga nisbatan nafrat tuyg‘usi, kishilararo mehr-oqibat va insoniylik ahamiyatiga urg‘u beriladi. Muallif o‘zining aytgan oddiy bir so‘zi Afg‘onga ketishiga sababchi bo‘lganligini aytib o‘tadi. Yo‘lga chiqish oldidan o‘y-xayollarida hukumat tomonidan noto‘g‘ri targ‘ib qilingan bir necha g‘oyalar: partiya, paxta ishlari, jadidlarning yomon deb o‘rgatilgani va hokazolar haqida eslaydi. Adib urushga jo‘nash sanasini ham aniq eslaydi: 1986-yil 18-fevral. Urushga yuborilish oldidan esa uch oy o‘quv mashg‘ulotini o‘tashadi.

### **Natija va muhokama**

Asarning boblari nomlanishi ham harbiy ma‘noga tortsa, bir tomondan afg‘on urushi xato ekanligiga tortadi. Masalan bob nomlanishi ham huddi shunday: “Nomussiz Vazifa”, “Ichimdagi xoin”, “Haliyam tirikmisan”, “So‘nggi namoz”, “Noming o‘chgur, urush!”, “Hijolatim tirikligimdan”, “O‘zimni tanimay qoldim” va shu kabilar.

Afg‘onga borganidan keyin bir necha muddat uyidagilarni xavotirga qo‘ymaslik uchun Mangoliyadaman deb aldab yuradi. Qarindoshi G‘ulomga esa rostini aytadi. Bu o‘rinda ham Afg‘ondaligini uydagilari bilishini, onasining xavotir olishini istamagan qahramon yolg‘on ishlatishga majbur bo‘ladi. Lekin ikki kishi bilgan sir sir bo‘lmasligi aniq bo‘lib, qarindoshi ham bor haqiqatni aytib beradi. Bu voqealar bayonini muallif “Uydagilarga nima deyman?” hamda “Bir kishi bilgan sir – sir” boblarida keltiradi.

Avval ham ko‘p eslab o‘tganimiz – G‘afur Po‘latovning “Herirud Faryodi” asariga o‘xshash joylari ham talaygina. Xizmatga yangi kelgan askarlarning dembellar tomonidan “tunalishi”, harbiylar tili bilan aytganda: modalar ko‘rigi. Yokida Musulmon askarlariga batalyondagilar uncha ishonishmasligi, shuning uchun ham ko‘plab tortishuvlar ham sodri bo‘lishi, kabi yerlari va asirga tushishi lavhalari ham o‘xshab ketadi.

Muallif asardagi ikkita xizmatchi do‘sti haqida gapirib qolgan qahramonlarga to‘xtalib o‘tirmaydi. Urushdagi do‘stilaridan biri Ismadiyor – serjat, komandir yordamchisi darajasigacha ko‘tariladi, qizil yulduz oladi. Lekin minaga tushib, halok bo‘ladi. Ikkinchi do‘sti Shukrullo ham urushdan uyiga qayta olmaydi.

Asardagi asosiy tasvir – afg‘on urushi bilan parallel ravishda Ona tasvirini ham berib boradi. Asardabir necha detallarga ham e‘tibor berilgan bo‘lib ulardan biri Xat haqida ajoyib fikrlar keltiradi. Xat yozishning zavqli ekanligi va hozirda bu narsa yo‘qolib borayotganligi, xat – sog‘inch belgisilgini ta‘kidlaydi.

Vatan taqdiri haqida qayg‘urib, bosqinchilarning jirkanch ishlari haqida o‘ylaydi. Bunga misol qilib Anvar Obidjonning misrasi keltiradi:

Kirib olding uyimga  
Hech bo‘lmasa o‘g‘limga  
O‘z tilimda so‘ylagin.

Qulligi haqida o‘ylamayotgan vatandoshlaridan o‘pkalaydi. Lekin o‘zi ham bosqinchi bo‘lib afg‘onga borganidan kuyunadi. Afg‘onda yo‘qotgan yana bir narsasi xotirasi ekanligini ta‘kidlaydi. Aslida afg‘onlar dushman emas o‘zlari dushman ekanligini tushunadi.

Afg‘oniston tabiati, iqlimi haqida so‘z borar ekan, afg‘on shamolini ham ta‘riflab ketadi. Afg‘on shamolini ajdaho narasiga mengzaydi. Agar yodingizda bo‘lsa shu nomda Isoqjon Nishonov ham romanlar turkumi muallifidir.

Asarda yana bir ajoyib xoin – qo‘rquv haqida ham tasvirlab, afg‘on urushidan askarlar ortiradigan yana bir narsa qo‘rquvligi hamda uning necha yillar davomida hamrox bo‘lishini kuyunib tasvirlaydi. O‘ldir, ichingdagi xoinni o‘ldir – Shavkat Rahmon misrasi bilan aytganda bu xoin qo‘rquvligini anglash qiyin emas. Bu qo‘rquv esa urush qatnashchilariga doimo yo‘ldosh bo‘lib yuradi. Asar bir necha yilgi xotiralar asosida yozilganligi uchun zamonaviy tilda yozilgan hamda hozirgi kundagi voqealarga ham bog‘liq holatda tasvirlangan

## **“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

Urushdan kelgandan keyin eslab-eslab yozadi. Hamma asarda bo‘lgani kabi bunda ham asirga tushadi. “O‘limning rangi”, “Herirud faryodi”da ham asirga tushib qutulish sahnalari bor. Ikki asarda “O‘limning rangi” hamda “Afg‘on to‘la fig‘onim” asarlarida qahramonlar mahalliy aholining kechirimliligi uchun o‘limdan omon qoladi.

Urushda bir yarim yil yuradi. Buni muallif aniq qilib yozadi. Lekin tushida qiynalganchalik qiynalmaydi, urush bir yarim yilda o‘tib ketadi, lekin u tushlarida doim hamrox. Shu o‘rinda afg‘on urushi haqidagi O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” asari yodga tushadi. Tushlarida qiyinchilik ko‘ravigandan keyin momosi tushidagi taqibdan qutqaradi. Kitobni yozishdan oldin Afg‘onga borib ham keladi.

Asarning xotimasini esa quyidagicha yakunlaydi: “Mana xotimaga ham yetib keldim, ushbu shonsiz, sharafsiz, orsiz urush haqida aytadigan gaplarim ko‘p. Xulosalarim bilan savollarim ham oz emas. Ammo u savollarga javob yo‘q”. Yozuvchi o‘z asari xotimasiga bir tarixiy voqea orqali yakun yasaydi. Turk adabi Ilhon Yordamchi “Sen kimsan” kitobidan bir parcha keltiradi. Asarda keltirilishicha ona bolasiga dushmandan qo‘rqmasligini, ortga chekinmasligini tayinlaydi.

### **Xulosa**

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, urush mavzusi badiiy adabiyotda insoniyatning eng og‘riqli, eng fojeaviy tajribalarini aks ettiruvchi doimiy mavzulardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Afg‘on urushi haqidagi asarlar ham ana shu fojeaning tirik guvohlari sifatida yaratilgan bo‘lib, ular orqali urushning siyosiy emas, avvalo insoniy fojia ekani ochib beriladi. Abdug‘afur Iskandarning “Afg‘on to‘la fig‘onim” xotira-essesi ham shu jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi. Asarda urush jarayoni shunchaki voqealar ketma-ketligi sifatida emas, balki inson qalbida kechgan iztiroblar, qo‘rquv, pushaymon va anglash jarayoni orqali tasvirlanadi.

Muallif urushning asl mohiyatini — uning shon-sharaf emas, balki sharmandalik va fojia ekanini ko‘rsatadi. Asarda Ona obrazi bilan urush tasvirining parallel olib borilishi, xat motivining qo‘llanishi, qo‘rquvni “ichki xoin” sifatida talqin etilishi badiiy-estetik jihatdan kuchli ta’sir uyg‘otadi. Qahramonning ichki iztiroblari, o‘zini anglash jarayoni va “dushman” tushunchasining qayta talqini asarning g‘oyaviy yo‘nalishini belgilaydi.

Xotira-esse janrida yozilgan ushbu asar samimiyligi, hayotiyiligi va poetik ifoda vositalari bilan ajralib turadi. Muallif urushning nafaqat jismoniy, balki ruhiy jarohatlar qoldirishini, u yillar o‘tsa ham insonni tark etmasligini ta’kidlaydi. Asar o‘quvchini tinchlikning qadriga yetishga, insoniylikni asrashga da’vat etadi. Shu bois “Afg‘on to‘la fig‘onim” o‘zbek adabiyotida urush mavzusining badiiy talqinida muhim o‘rin tutuvchi, ogohlantiruvchi va tarbiyaviy ahamiyatga ega asar sifatida baholanishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Светлана Алексиевич, Цинковые мальчики, «Время», 2013
2. Артема Боровик, Спрятанная война (сборник), «Трамвай», 1994.
3. Артема Боровик, Афганистан. Еще раз про войну, «Международные отношения», 1990.
4. Xolid Husayniy, Shamol ortitidan yugurib, Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016
5. Холид Хусайний, Минг куёш шуъласи: роман / таржимон РустамЖабборов. – Тошкент, Янги аср авлоди, 2016
6. Холид Хусайний, Тоғлар ҳам садо берди: роман / таржимон Мунира Норова. – Тошкент, Янги аср авлоди, 2016
7. Hoshimov, O. (2015). Tushda kechgan umrlar. Toshkent: Meriyus
8. Norqobil, Q. (2007). Quyoshni kim uyg‘otadi. Toshkent: Sharq
9. Normurodov, A. (1991). Qonli yo‘rgaklar. Toshkent: O‘zbekiston
10. Nishonov, I. (2016). Afg‘on shamoli. Toshkent: Yangi asr avlodi
11. Jaloliddin, N. (2021). O‘limning rangi. Toshkent: G‘afur G‘ulom
12. Hoshimov, N. (2015). Afg‘on fig‘onlari yoxud tilmoch Samarqandiyning ko‘rgan kechirganlari. Toshkent: Tafakkur
13. Iskandar, A. (2018). Afg‘on to‘la fig‘onim. Toshkent: Muharrir